



## **ZAMONAVIY HADIS IMLARI SOHASIDA ISTILOHLARGA MUNOSABAT (G'ARB OLIMLARI MISOLIDA)**

**Mustafoev Abubakr Muhiddin o'g'li**

O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi "Islomshunoslik va islam

sivilizatsiyasini o'rGANISH ISESCO" kafedrasi

tayanch doktoranti mail:mustafoev.abubakr@bk.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7512263>

### **ARTICLE INFO**

Received: 26<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 06<sup>th</sup> January 2023

Online: 07<sup>th</sup> January 2023

### **KEY WORDS**

*Hadis, X asr, sahih, ijtihog, Hindiston, hadisshunoslik, sunan, shozz*

### **ABSTRACT**

*Mazkur maqolada hijriy asrning boshidan hozirgi davrgacha ulum al-hadis sohasida taraqqiyot asri, uyg'onish va qayta rivojlanish davri bo'lganligi haqida so'z yuritilgan. Ulum al-hadis sohasida manbalarni ilmiy asosda xolis va obyektiv ravishda o'rGANISH, tadqiq etish jarayoninig qayta jonlanganligi haqidagi ma'lumotlar ilmiy asosda bayon qilingan. Shuningdek bu borada Hindiston olimlarining xizmati beqiyosligi, bu sohada qo'nga kiritilgan yutuqlar, rivojlanish bosqichlari olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar asosida birma-bir asoslab berilgan. Globalashuv davrida ulum al-hadis sohasida xizmat qilgan buyuk olimlar, ularning qilgan yangiliklari, qoldirayotgan bebaho asarlari yoritib berilgan.*

Islom dinida manbalaming o'rni o'ziga xos. Ayniqsa, hozirgi axborot kommunikatsiyalar rivojlangan bir davrda, buyuk olimlar qoldirgan bebaho meros bo'lmish, qo'lyozma va toshbosma asarlarni o'rGANISH juda katta ahamiyatini kasb etadi. Hadis istilohlarini o'rGANISHdan, undagi iboralarni to'g'ri tushunishdan eng asosiy maqsad ushbu fan sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislarda hadis manbalarini tadqiq etish jarayonida undagi atamalarni to'g'ri anglash, yetishib kelayotgan yosh olimlarda mustalahul hadis to'g'risidagi umumiyligi tushunchani shakllantirish va ulardan foydalanishda qulayliklar yaratish, ularda mustaqil o'rGANISH ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Hijriy X asrdan hozirgi asr boshlarigacha hadis ilmlari sohasida turg'unlik va harakatsizlik davri bo'ldi.<sup>1</sup>

Bu davrda ilm-fan masalalarida tirishqoqlik va kitob tasniflashdagi yangilanishlar to'xtab qoldi. Ulumul hadis sohasida nasriy va nazmiy qisqartmalar ko'payib ketdi. Yozuvchilar mavzuning tub mohiyatiga kirishmasdan, mualliflarning og'zaki nutqdagi iboralarini muhokama qilish bilan mashg'ul bo'ldilar.

<sup>1</sup> Nuriddin Itr. Manhajun naqd fi ulum al-hadis. Bayrut. Darul fikr. -2020: B-71.



Bu davrda yozilgan eng ko'zga ko'ringan asarlardan:

1 - Umar bin Muhammad bin Futuh Bayquniy Dimashqiy (vaf. 1080-hij) ning "Manzuma al-bayquniyya" kitobi. 36 baytdan iborat bo'lib, boshqalaridan chiroyli nazmi va yengil iboralari bilan ajralib turadi. Bu fan o'quvchilari uchun eslatma sifatida mos keladi. Unga ko'pgina sharhlar yozilgan.

2- San'oniy Muhammad bin Ismoil al-Amir (vaf. 1182-hij) ning "Tavziyh ul-afkor" kitobi. Bu foydali kitob.

3- Ali al-Qori nomi bilan mashhur Shayx Ali ibn Sulton Hiraviy al-Qori (vaf. 1014-hij) ning "Sharhu nuzhat an-Nazar" kitobi. Bu kitobni ko'pchilik orasida "sharhning sharhi" nomi bilan mashhurdir.

Ushbu so'nggi kitob muallif bilimining ko'pligi tufayli tadqiqotlarda keng foydalilanligiga kitoblardan hisoblanadi.

Bu qisqa turg'unlik bosqichidan keyin, Ulum al-hadis sohasining qayta uyg'onish davri Hindiston yurtida sodir bo'ldi. Bu ish taraqqiyot va ilm-fan sohasida yuksak saviyada bo'lgan bu davrda olim, imom, muhaddis Shoh Valiyulloh Dehlaviy (vaf. 1176-hij) boshchiligidagi qayta tiklash ishlari olib borildi. So'ngra bu ishni uning farzandlari, nabiralari va shogirdlari qo'liga o'tdi. Muhammad Anvar Shoh Kashmiriy (1292-1352 hij), Muhammad Zohid ibn Hasan Kavsariy (1296-1371 hij) lar hadis ilmini hanafiy mazhabi qoida va tamoyillari asosida qayta jonlantirdilar. Bu insonlar sunnat ilmini boshqa ilmlardan yuqori darajaga ko'tardi. Ular qilgan islohotlar islom olamida hadis ahli va ilm ahli kutganidan ham yuqori natijalarga erishdi.<sup>2</sup>

Hozirgi hijriy asrning boshidan hozirgi davrgacha turli davrlarda ulum al-hadis sohasida rivojlanish davri bo'lgan. Globallashuv jarayoni rivojlangan hozirgi vaqtida turli oqim va firqalar, adashgan guruhlar, turli shaxs va soha egalari tomonidan hadislар turlicha talqin etilib, o'z maqsadlariga mos tarzda hukm chiqarishlari jamiyat osoyishtaligiga katta xavf tug'dirishi hech kimga sir emas. Shuningdek, turli guruhlar g'arazli maqsadlariga erishish yo'lida islom dinining an'anaviy qarashlariga qarshi chiqib, hadislarni noxolis talqin etish va hadisdan ko'zlangan maqsadini to'g'ri anglamaslik oqibatida ulardan noto'g'ri foydalanish holatlari yuzaga keldi. Bu esa bu borada tadqiqot olib borish, ularga qarshi raddiya berish, masalalarga yechim topish borasida yangicha yondashuvlarni taqozo qildi.

Va nihoyat, ulumul hadis sohasida manbalarni ilmiy asosda xolis va obyektiv ravishda o'rghanish, tadqiq etish jarayoninig qayta jonlandi.

<sup>2</sup> Muhammad Abdurahmon Muborakfuriy. Muqoddimat tuhfat al-ahvaziy. Bayrut. Darul fikr. -2020: B-26



Olimlar bu vazifani yuksak darajada bajardilar. Bu xizmatlar islom diyorlariga tarqalayotgan yuzlab hadis kitoblari va yirik hadis sharh kitoblarida o'z aksini topdi. Bu ularning qay darajada ulkan xizmatlar ko'rsatganliklarining haqiqiy dalilidir.

Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, bu davrda ulamolar sanad zanjirlari ustida izlanish, qabul qilingan hadislarni rad qilinganlaridan ajratish, sunnat kitoblariga sharhlar yozish va bu borada zarur vazifalarni bajarishdan to'xtamaganlar. Buning natijasida bosmaxonalar ko'plab yangidan-yangi va foydali kitoblarni nashr qildi. Jumladan:

1- Shayx Jamoliddin Qosimiyning "Qovaid al-hadis" kitobi. Shayx kitobida quyidagicha keltiradi:

Unda shunday degan: "Men bu risolada Alloh taoloning inoyati bilan bundan oldin shu sohada kitob yozgan olimlarning xulosalarini keltirdim". Olim o'z kitobida hadis turlarini uch qismga ajratgan: Sahih, hasan, zaif va ular orasidagi mushtarak hadislar. Bu aynan shu sohada faoliyat yurituvchi zamonaviy hadis olimlari uchun namuna sifatida zimat qildi.

2 - Abdul Aziz Xuliyning "Miftoh as-Sunna" yoki "Tarixu funun al-hadis" asarlari. Bu hadis ilmi tarixini o'rghanishga qaratilgan ilk qadam bo'ldi.

3- Doktor Mustafo Siboiyning "Sunnatu va makanatuhu fi tashri' al-islam" kitobi. Bu kitob sharqshunoslar va ularning sunnat va islomga bo'lgan pozitsiyalari haqida so'z boradi. So'ng hadisning sahihligini inkor etuvchi kimsalarning iddaolari haqida bahs boradi. Ularga beriladigan raddiya va javoblar muhokama qilinadi.

4- Shayx doktor Muhammad Muhammad Abu Zuhv tomonidan ta'lif etilgan "Hadis va muhaddislar" kitobi. Unda ulamolarning hadis sohasida qilgan ulkan xizmatlari haqida so'z yuritilgan. Bundan tashqari hadis ilmining avvalgi asri, sahabalar va tobeinlar davri, hadislarni yozilish (tadvin) davrini tadqiq qilish bilan shug'ullangan. Bu boradagi turli shubhalar va yolg'on ayblovlarni muhokama qilgan.

5 - Doktor Shayx Muhammad Muhammad as-Samahiyning "Manhaj al-hadis fi ilm al-hadis" kitobi. Bunda u hadis ilmi bo'yicha keng qamrovli qomus tayyorlashni maqsad qilgan bo'lib, keltirib o'tilgan dolzarb muammolarga to'xtalib o'tgan. Shuning uchun ularni birma bir ko'rib chiqadi va muhokama qiladi. So'ngra hadis ilmi qoidalarini har tomonlama o'rghanadi. Kitob bir necha bo'limlarga bo'lingan. Ular: 1- *Hadis tarixi qismi; (U uch bo'limdan iborat)*; 2- *hadis istilohlari qismi*; 3- *hadisni rivoyat qilish qismi*; 4- *roviylar haqidagi qism*.

Zamonaviy olimlar ham bu sohada faol tadqiqotlar olib bormoqdalar, jumladan:

1. Doktor Mahmud Tahonning "Taysir mustalah al-hadis" kitobi;
2. Abdurahmon Itrning "Maolim as-sunna an-nabaviya" kitobi,



3. Doktor Nuriddin Itrning "Manhaj an-naqd fi ulum al-hadis" kitobi;
4. Abdul Majid Turkmoniyning "Dirosat fi usul al-hadis ala manhaj al-hanafiy" kitobi;
5. Muhammad Abu Zahvning "al-Hadis va al-muhaddisun" kitobi;
6. Muhammad Ijoj Xatibning "as-Sunna qabla at-tadvin" va yana boshqa bir qancha boshqa asarlarni misol qilib keltirish mumkin.

Shu tariqa, Muhammad (s.a.v) ning hadislarini o'z davridan to hozirgi davrgacha ilm va amalda, fanda, o'rganish va yetkazish yo'lida bir qator ilmiy izchil sa'y-harakatlar amalgalashirildi. Muhammad (s.a.v) ning hadislarini sahihidan zaif, mavzularini ajratish, uni pok va sof holda ummatga yetkazish uchun imkon qadar harakat qilindi.

### **References:**

1. Shayx Muhammad Avvoma.Faqih imomlar ixtilosida hadisi sharifning o'rni. (Tarjimon Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.- T.: Hilol nashr. 2018).
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. – T.: Sharq, 2011.
3. Abdulmajid Juzajoniy.Muhaddislar va hanafiy fuqaholar nazdida hadis ilmlari. (Tarjimon Muhammadrahim Abdulqodirov).- T.: Hilol nashr. 2021).
4. Uvatov U. Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o'rni (Al-Buxoriy, Muslim, At-Termiziy): tarix fanlari doktori... dis. avtoref. – T.: Toshkent islom universiteti, 2002.
5. Abdulmajid Turkmoniy. Dirosat fi usul al-hadis ala manhaj al-hanafiy.-Bayrut.: Dar Ibn Kasir. 2020.
6. Abdulmajid Turkmoniy. Al madxal fi usul al-hadis ala manhaj al-hanafiy.
7. – Urdun.: Dar Ar-Rayohiyn. 2021.
8. Nuriddin Itr. Manhajun naqd fi ulum al-hadis. –Damashq.: Dorul fikr. 2020.